



TALABA YOSHLARDA KREATIV VA TANQIDIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH

Abatov Jumaboy Baxtibayevich

*O'zbekiston pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot
instituti Qoraqalpog'iston filiali erkin izlanuvchisi*

Annotatsiya: Mazkur maqola talabalarni pedagogik faoliyatga tayyorlashda kreativ yondashuvga bag'ishlangan. Kreativlik-bu yangi, original g'oyalarni yaratish, fikrlashning nostandart shakli, berilgan muammolarga omadli yechimlar toppish hisoblanib, talabalarning to'laqonli o'z ongi, aql zakovati, zukkoligi bilan bilim olishga va ijod qilishga kreativlik xususiyatlarini rivojlantiruvchi maqsad va vazifalarni ishlab chiqish hamda dars jarayonida unga amal qilish bugungi kunning muhim vazifalaridan biridir.

Kalit so'zlar: pedagogik faoliyat, kreativ, kreativlik, ijodiy individuallik, innovatsion pedagogika, ta'lim-tarbiya, ijodkorlik.

Tanqidiy fikrlashga o'rgatish Kadrlar tayyorlash milliy dasturida bayon etilgan yuqori kasbiy madaniyatli, ijodiy va ijtimoiy faol hayotda o'z o'rnini topa oladigan malakali kadrlarni shakllantirish vazifasini hal qilishga ham mos keladi. Bu tushuncha haqida gapirishdan oldin, ayrim aqliy faoliyat ko'nikmalarini ko'rib chiqaylik, lekin ularni tanqidiy fikrlash deb bo'lmaydi. Esda saqlash - eng muhim fikrlash jarayoni bo'lib, busiz o'uv jarayonini amalga oshirib bo'lmaydi, lekin u tanqidiy fikrlashdan tubdan farq qiladi. Kompyuterning xotirasi har birimiznikidan anchagina yaxshiroq, lekin esda saqlash tanqidiy fikrlashni bildirmaydi. Ko'pchilik o'qituvchilar har qanday fikrlashdan ko'ra xotirani rivojlantirishni yuqoriroq qadrlaydilar, nazorat ishlari va imtihonlarda asosan talabalar xotirasi ko'lamini tekshiradilar. Lekin tanqidiy fikrlash tarafdorlari esa aqliy faoliyatning murakkabroq turlarini nazarda tutadi.

Tushunish, ayniqsa, agar o'quv materiali qiyin bo'lsa, murakkab aqliy jarayon bo'lib hisoblanadi. Masalan, talaba murakkab teoremani tushunish uchun bosh qotirmoqda. Albatta uning miyasida murakkab aqliy jarayonlar kechadi, lekin buni ham hozircha tanqidiy fikrlash deb bo'lmaydi. Biz o'zgarlar fikrini tushunish ustida ishlar ekanmiz birinchi bosqichda bizning shaxsiy fikrlashimiz sust bo'ladi: bunda biz faqat bizgacha kimdir tomonidan yaratilganni idrok qilamiz xolos, tanqidiy fikrlash esa, yangi, tushunib bo'lingan g'oyalar tekshirilayotganda, baholanayotganda, rivojlantirilayotganda va qo'llanayotganda sodir bo'ladi. Dalillarni eslab qolish va g'oyalarni tushunish esa tanqidiy fikrlash uchun zarur bo'lgan dastlabki shartlar bo'lib hisoblanadi, lekin ular o'zaro yaxlitlikda ham tanqidiy fikrlashni anglatmaydilar.



Jahon ta'lim tizimida 60-70 yillarda kompetentlik va kreativlik tushunchasi paydo bo'lib, ta'lim tizimiga joriy etilgan. Kreativlik talaba yoshlarning ma'lum bir sohadagibilimdonli va maqsad sari qilinayotgan ijodkorligi bo'lib, bu bevosita ijodkor yoshlarni tarbiyalashdek muhim vazifani amalga oshiradi. Umuman olganda, kreativlik-bu yangi, original g'oyalarni yaratish, fikrlashning nostandart shakli, berilgan muammolarga omadli yechimlar topishdir. Talabalarning to'laqonli o'z ongi, aql zakovati, zukkoligi bilan bilim olishga va ijod qilishga kreativlik xususiyatlarini rivojlantiruvchi maqsad va vazifalarni ishlab chiqish hamda dars jarayonida unga amal qilish bugungi kunning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Ma'lumki, fan va texnika jadal sur'atlar bilan rivojlanayotgan bugungi kunda ko'plab ilmiy bilimlar, tushuncha va tasavvurlar hajmi keskin ortib bormoqda. Bu bir tomondan, fan-texnikaning yangi soha bo'limlarining tarqqiy etishi tufayli uning differentsiallashuvini ta'minlayotgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, fanlar orasida integratsiya jarayonini vujudga keltirmoqda.

Bunday sharoitda, yuqori malakali pedagoglarga bo'lgan talablar ortib borib, barkamol avlodni asrlar davomida shakllanib kelgan umuminsoniy va milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash layoqatiga ega, fanning fundamental asoslarini, pedagogika va psixologiya metodlarini mukammal egallagan, kasbiy tayyorgarligi yuksak darajada bo'lgan hamda zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini amaliyotda qo'llash ko'nikma va malakasiga ega ijodkor pedagoglarni tayyorlash talab etiladi.

Innovatsion pedagogik jarayonning muhim unsurlari shaxsning o'z-o'zini boshqarishi va o'zini- o'zi safarbar qila olishi hisoblanadi. Uning eng muhim yo'nalishlaridan bilan talabalarning bilish faoliyatini rivojlantirish bo'lib, bunday yo'nalish talabalarning o'quv ishlarini faollashtirish, ularning kasbiy ixtisoslashishini aniqlab olish faolligini o'z ichiga oladi.

Talabalarning darslarda kreativ fikrlashlarini shakllantirish uchun avvalo pedagogdan kasbiy kompetentlik talab qilinadi. Shuning uchun ham pedagogik kasbiy kompetentlik har bir pedagogda mujassam bo'lishi, u orqali bo'lajak mutaxassislariga kreativ yondashuvga oid bo'lgan bilimlarni hosil bo'lishiga zamin yaratiladi. Hozirgacha pedagogik deontologiyada pedagog tomondan kreativ yondashuvni shakllangan 3 ta kata guruhga ajratish mumkin:

1. Kreativ yondashuvni funksiyalarini bilish;
2. Turli pedagogik vazifalarni qo'yish;
3. Pedagogik jarayonni bosqichlarini bilish.



Kreativ yondashuv tarkibini asoslashga turli yondashuvlarning asosiy mohiyati ko'proq umumiy mahoratdan xususiy mahoratgacha bo'lgan pedagogning ko'proq izlanishlariga va ko'proq motivatsiya berishiga bog'liq. Ta'lim berishdagi zamonaviy yondashuvlarni rivojlantirish talabalarda teran fikrlashga ega bo'lishni, hamkorlikda ishlashni rivojlantirishni talab etadi. Talabada quyidagi kreativlik bo'yicha quyidagicha yondashish talab etiladi.

- ko'p qirrali, murakkab vazifalarni amalga oshirishga o'rgatish;
- har bir muammo xususida chuqur fikrlash va o'z bilimni oshirib borishni boshqara olish;
- qarorlar qabul qilish, muammolarni hal etish bilan bir qatorda yangi kreativ fikrlar yaratishda turli xil texnologiyalardan foydalana olish.

Boshlang'ich ta'limda kreativlikni rivojlantirish orqali talabalarga bilim berish natijasida ular har bir fan bo'yicha qo'yilgan malaka talablarini egallashlari, faqat o'zlari yanada ijod qilishlari talab etiladi. Shaxsning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, his-tuyg'ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyom bo'ladi. Kreativlik shaxsni yaxlit holda yoki uning muayyan xususiyatlarini tavsiflaydi. Kreativlik iqtidorning muhim omili sifatida ha aks etadi. Qolaversa, kreativlik zehni o'tkirlikni belgilab beradi, "talabalar e'tiborini ta'lim jarayoniga faol etishni ta'minlaydi." Innovatsion faoliyatga aksiologik yondashuv insonning o'zini yangilik yaratish jarayoniga baxshida qilishi, uning tomonidan yaratilgan pedagogik qadriyatlar jamul-jamini anglatadi. O'qituvchining innovatsion faoliyatiga yaratuvchilik jarayoni va ijodiy faoliyat natijasi sifatida qaraladi. Bo'lajak o'qituvchilar o'zlarining kreativ fikrlash qobiliyatlarini qulay muhitda to'la namoyon qilishlari mumkin. Agar bo'lajak o'qituvchilarda muvaffaqiyatsizlikka uchrash va qo'rquv hissi mavjud bo'lsa yoki tanqidga uchrasalar bunday vaziyatda ularda kreativ fikrlash ko'nikmalarini samarali shakllantirish yoki rivojlantirish mumkin bo'lmaydi. Bo'lajak pedagoglarda kreativlikni odatga aylantirish orqaligina kreativ fikrlash ko'nikmasini muvaffaqiyatli shakllantirish mumkin. Bu jarayonda ular tomonidan mavzu mazmunining puxta anglanishi va kreativ fikrlash ko'nikmalarini baholashda qo'llaniladigan metod va vositalar muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jarayonda "pedagogning roli auditoriyada kreativlik muhitini yaratishdan iborat. Vaholanki, pedagog guruhda bo'lajak o'qituvchilar o'zini erkin seza oladigan va o'z fikrlari, g'oyalari bilan bo'lisha oladigan muhit yaratishi lozim. Inson ongidayuz berayotgan jarayonlarni yanada faollashtirish uchun o'rnatilgan qonun qoidalar, standartlardan chetga chiqib, turli savollar berishda erkin harakat qilishlari kerak.



Kreativ muhitda ta'lim olayotgan bo'lajak o'qituvchilarda asta-sekin kreativ vazifalarni bajarishga nisbatan qiziqish ortadi, shuningdek, kreativ tafakkurga ega pedagogni kuzatish natijasida kreativ fikrlashga moyil bo'ladi.

Xulosa o'rnida ta'kidlab o'tish lozimki, bugun barcha davlatlar ta'limga imkon qadar ko'p yangilik kiritishga intilmoqda. Bugungi yangiliklar ularga uyushgan, rejali, ommaviy yondashuvni talab etadi. Yangiliklar kelajak uchun uzoq muddatli investitsiyalar hisoblanadi. Oliy pedagog ta'lim muassasalari talabalarida kasbiy tayyorgarlikni shakllantirish va uni rivojlantirish, mazkur jarayonga nisbatan tizimli, kompleks yondashuvni taqozo etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- umayev A. Bo'ajak o'qituvchi shaxsining ijtimoiy faollik omillari. / Xalq ta'limi jurnali, 2006, No 6. 17-20 b.
2. Qosimova Z.H. "Ta'lim texnologiyalari" - Toshkent : 2014yil
3. Ro'ziyeva.D.I. "Oliy ta'lim muassasalari talabalarida milliy iftixor tuyg'usini rivojlantirishning ilmiy pedagogik asoslari" - Toshkent: 2007yil
4. Amina, T. (2021, December). The Importance of Daily Life Programs in the Karakalpak Language. In " ONLINE-CONFERENCES" PLATFORM (pp. 285-288).
5. Ilin Ye.P "Psixologiya tvorchestva , kreativnosti" - Moskva 1998yil
6. Temirbekova, A. (2021). INNOVATSIYALIY PROTSESSLERDIN'TEORIYALIY ASPEKTLERI. Интернаука, (5-2), 94-95.
7. M.Usmonboyeva, A.To'rayev "Kreativ pedagogika" – Toshkent 2006yil
8. Ishmuhammedov R, Abduqodirov A, Pardayev A "Ta'limda innovatsion texnologiyalar".
9. Temirbekova, A. U. (2021). Emotional urges in karakalpak. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(5), 189-193.